

**OILAVIY (MAISHIY) ZO‘RAVONLIKKA QARSHI KURASHISHNING
JINOYAT-HUQUQIY CHORALARI****Qurbonov Jahongir Akbarali o‘g‘li**

O‘zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi magistranti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19587664>

Annotatsiya. Mazkur maqolada oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralari tizimli ravishda tahlil qilinadi. Unda oilaviy zo‘ravonlikning tushunchasi, turlari hamda uning jamiyat va shaxs hayotiga salbiy ta‘siri ochib beriladi.

Shuningdek, milliy qonunchilikda nazarda tutilgan javobgarlik choralarining mazmuni, ularning amaliy qo‘llanishidagi muammolar va kamchiliklar yoritiladi. Xalqaro huquq normalari asosida oilaviy zo‘ravonlikning oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish mexanizmlari ko‘rib chiqiladi.

Kalit so‘zlar: oilaviy zo‘ravonlik, maishiy zo‘ravonlik, jinoyat-huquqiy choralar, jabrlanuvchilarni himoya qilish, javobgarlik, profilaktika.

Аннотация. В данной статье системно анализируются уголовно-правовые меры противодействия семейному (бытовому) насилию. Раскрываются понятие и виды семейного насилия, а также его негативное влияние на общество и личность. Кроме того, освещаются содержание предусмотренных национальным законодательством мер ответственности, проблемы и недостатки их практического применения. На основе норм международного права и зарубежного опыта рассматриваются механизмы предупреждения семейного насилия, защиты потерпевших и привлечения виновных лиц к ответственности.

Ключевые слова: семейное насилие, бытовое насилие, уголовно-правовые меры, защита потерпевших, ответственность, профилактика.

Annotation. This article provides a systematic analysis of criminal law measures aimed at combating domestic (family) violence. It examines the concept and types of domestic violence, as well as its negative impact on society and individuals. The paper also analyzes the content of liability measures предусмотренные национальным законодательством, along with issues and shortcomings in their practical application. Based on international legal norms and foreign experience, the mechanisms for preventing domestic violence, protecting victims, and holding perpetrators accountable are considered.

Keywords: domestic violence, family violence, criminal law measures, victim protection, liability, prevention.

KIRISH. Bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini ta‘minlash masalasi har bir davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik muammosi ham jamiyatdagi eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Zero, oilada sodir etilayotgan zo‘ravonlik holatlari insonning yashash, erkinlik, sha‘n va qadr-qimmat kabi asosiy huquqlarini buzadi hamda jamiyatda ijtimoiy beqarorlikni keltirib chiqaruvchi omillardan biri hisoblanadi. Oilaviy zo‘ravonlik ko‘pincha yashirin xarakterga ega bo‘lib, uning aniqlanishi va oldini olish murakkab jarayon hisoblanadi.

Ushbu turdagi zo‘ravonlik jismoniy, ruhiy, iqtisodiy va jinsiy shakllarda namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lib, ularning har biri shaxsning ruhiy va jismoniy holatiga jiddiy zarar yetkazadi.

Ayniqsa, ayollar, bolalar va ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlam vakillari bunday zo'rvonlikning asosiy qurbonlariga aylanmoqda. Bu esa mazkur muammoni chuqur o'rganish va unga qarshi samarali huquqiy mexanizmlarni ishlab chiqish zaruratini yanada kuchaytiradi.

So'nggi yillarda oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashish borasida bir qator muhim normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilinib, ushbu sohada islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, zo'rvonlik holatlarining oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, himoya orderlarini qo'llash hamda aybdor shaxslarni javobgarlikka tortish mexanizmlarini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Biroq amaliyotda ushbu choralarni qo'llashda ayrim muammolar, jumladan, zo'rvonlik faktlarini yashirish, jabrlanuvchilarning huquqiy savodxonligining pastligi, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida ayrim kamchiliklar mavjudligi kuzatilmoqda.

Shu jihatdan, oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashishda ayniqsa jinoyat-huquqiy choralar muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki aynan jinoyat-huquqiy normalar orqali zo'rvonlik sodir etgan shaxslarning javobgarligi ta'minlanadi, jabrlanuvchilarning buzilgan huquqlari tiklanadi hamda bunday huquqbuzarliklarning takror sodir etilishining oldi olinadi. Shu bilan birga, jinoyat-huquqiy choralar profilaktik vosita sifatida ham xizmat qilib, jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlashga yordam beradi.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, oilaviy zo'rvonlikka qarshi kurashishda mavjud jinoyat-huquqiy mexanizmlarni chuqur tahlil qilish, ularning samaradorligini baholash hamda amaliyotda yuzaga kelayotgan muammolarni aniqlash muhim ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning asosiy maqsadi oilaviy (maishiy) zo'rvonlikka qarshi kurashishning jinoyat-huquqiy choralarni tahlil qilish, ularning mazmun-mohiyatini ochib berish hamda ushbu sohadagi huquqiy tartibga solishning o'ziga xos jihatlarini yoritishdan iborat.

ASOSIY QISM. Oilaviy (maishiy) zo'rvonlik bolalar va yoshlarning hayotiga nafaqat jismoniy, balki ruhiy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishiga ham jiddiy salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Britaniyada olib borilgan tadqiqotlarda M. L. Lloyd oiladagi zo'rvonlikning bolalar uchun ko'p qirrali xavf tug'dirishini aniqlagan. Unga ko'ra, zo'rvonlik holatlariga duchor bo'lgan bolalarda stress va travma natijasida ruhiy barqarorlik pasayadi, o'zini ifoda etish va munosabatlarni boshqarish qobiliyati cheklanadi. Shu bilan birga, ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyati sezilarli darajada susayadi, diqqatni jamlash va o'rganish qobiliyati pasayadi, hamda maktabdagi ijtimoiy moslashuv qiyinlashadi. Olimning fikricha, oilaviy zo'rvonlikning ta'siri uzoq muddatli bo'lib, bolaning kelajakdagi shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishiga ta'sir qiladi.

Bu holat bolalarda o'z-o'ziga ishonchning kamayishi, ijtimoiy cheklanish, ruhiy tushkunlik va depressiya kabi muammolarni keltirib chiqaradi. Oiladagi zo'rvonlik bolaning ijtimoiy rollarini shakllantirishiga, do'stlik va muloqot qobiliyatini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi, bu esa uzoq muddatda jamiyatda ijtimoiy muammolar va oilaviy notinchlikka olib keladi.

Shuningdek, maktablar va ta'lim muassasalari oilaviy zo'rvonlikning oqibatlarini kamaytirishda muhim rol o'ynaydi. Maktab pedagoglari va psixologlari oilaviy zo'rvonlik ta'siridagi bolalarni aniqlash, ularni qo'llab-quvvatlash va psixologik yordam ko'rsatish orqali bolaning rivojlanishidagi salbiy ta'sirlarni kamaytirishi mumkin¹, -deb fikr bildiradi M. L. Lloyd.

¹ Lloyd, M. (2018). Domestic Violence and Education: Examining the Impact of Domestic Violence on Young Children, Children, and Young People and the Potential Role of Schools. *Frontiers in Psychology*, 9, Article 2094. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2018.02094>

Shu bois, M. L. Lloydning tadqiqoti oilaviy zo‘ravonlikni faqatgina jinoyat sifatida emas, balki bolalarning ijtimoiy va psixologik rivojlanishiga tahdid sifatida ham qamrab olish zaruratini ko‘rsatadi.

Avstraliyalik psixolog Dr. Zac Seidler, erkaklar ruhiy salomatligi va oilaviy zo‘ravonlik sohasida yetakchi tadqiqotchi sifatida, oilaviy zo‘ravonlikning omillarini aniqlash va ularning oldini olish masalalarini chuqur o‘rganadi.

Dr. Seidlerning tadqiqotlariga ko‘ra, oilaviy zo‘ravonlikni faqat jabrlanuvchilarni himoya qilish choralari tayanish yetarli emas, chunki bu yondashuv zo‘ravonlikning sabablarini bartaraf etmaydi. Shu sababli, u zo‘ravonlik qiluvchi shaxslarning xulq-atvorini o‘zgartirishga qaratilgan kompleks dasturlarni joriy etishni tavsiya qiladi. Uning tadqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, erkaklar tomonidan sodir etiladigan zo‘ravonlik ko‘pincha bolalik travmalari, ruhiy salomatlik muammolari, shuningdek, jamiyatdagi gender stereotiplari bilan chambarchas bog‘liq.

Dr. Seidler oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish uchun psixologik intervensiyalar, xulq-atvorga ta’sir qiluvchi terapiyalar va pedagogik qo‘llab-quvvatlash tizimlarini ishlab chiqishni taklif qiladi. Bu yondashuv zo‘ravonlik qiluvchi shaxslarning ichki sabablarini aniqlash, ularni davolash va xulq-atvorini ijobiy o‘zgartirish orqali oilaviy zo‘ravonlikning takror sodir etilishining oldini olishga yordam beradi. Shu bilan birga, u maktab va ijtimoiy muassasalar orqali bolalar va yoshlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini mustahkamlashning muhimligini ta’kidlaydi, chunki oilaviy zo‘ravonlikning bolalarga ta’siri uzoq muddatli va ko‘p qirrali bo‘lib, ularning ruhiy barqarorligi, ijtimoiy moslashuvi va o‘qishdagi muvaffaqiyati bilan bevosita bog‘liq².

Dr. Seidler ushbu tadqiqotlari orqali oilaviy zo‘ravonlikni faqat jinoyat sifatida emas, balki jamiyatdagi ijtimoiy, ruhiy va pedagogik muammolar bilan bog‘liq kompleks hodisa sifatida tahlil qilish zaruratini ta’kidlaydi.

O‘zbekiston olimlari, xususan Nodira Latipova va hamkasblari, oilaviy (maishiy) zo‘ravonlik muammosini ijtimoiy, huquqiy va psixologik tomondan chuqur tahlil qilgan.

Ularning tadqiqotlariga ko‘ra, oiladagi zo‘ravonlik holatlari nafaqat ayollarni, balki bolalarni ham tez-tez qurboniga aylantiradi. Tadqiqot shuni ko‘rsatadiki, jamiyatda oilaviy zo‘ravonlik holatlari ko‘pincha yashirin qoladi, chunki ko‘pchilik uni “oilaviy masala” deb hisoblab, ichki ishga aralashishni xohlamaydi. Shu bilan birga, olimlar zo‘ravonlikning jismoniy va ruhiy shakllari mavjudligini, ularning jinoyatlarni yashirish, ijtimoiy stereotiplar va huquqiy ongning pastligi bilan qayd etadilar.

Shuningdek, olimlarning fikricha, yoshlar o‘rtasida o‘tkazilgan “Yoshlarning zo‘ravonlikka munosabati” sotsiologik tadqiqoti natijalari, oilaviy zo‘ravonlikning shakllanishida ijtimoiy munosabatlar va xulq-atvor omillari muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi.

Shu sababli, bolalarga nisbatan shafqatsiz va beparvo munosabatlarning oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlar - oilaviy va ta’lim muassasalarida psixologik va pedagogik yordamni kuchaytirish, ijtimoiy ongni oshirish va jamiyatdagi noto‘g‘ri stereotiplarni bartaraf etish - muhim ekanligi ta’kidlanadi³.

² Seidler, Z. (2024, June 8). It’s hard to have compassion: Can interventions change violent men’s behaviour? The Guardian. <https://www.theguardian.com/society/article/2024/jun/09/its-hard-to-have-compassion-can-interventions-change-violent-mens-behaviour>

³ Latipova, N. M., Ganiyeva, M. K., Abduvalieva, M. A., & Ziyaeva, H. O. (2020). Family Violence in Modern Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Article. <https://www.psychosocial.com/index.php/ijpr/article/view/6217>

Oilaviy zo‘ravonlikning shaxs va jamiyat hayotiga uzoq muddatli salbiy ta‘siri, bolalarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga ko‘rsatadigan oqibatlari, shuningdek, huquqiy va ijtimoiy choralarni takomillashtirish zarurati ushbu masalani tahlil qilishni talab qiladi. Shu tarzda, Latipova va hamkasblari oilaviy zo‘ravonlikni huquqiy, ijtimoiy va psixologik nuqtai nazardan tahlil qilib, samarali profilaktika va himoya choralari joriy etish zaruratini ta‘kidlaydilar.

Yuqoridagi olimlarning tadqiqotlari oilaviy zo‘ravonlik muammosini yoritadi. Michele Lloyd oiladagi zo‘ravonlikning bolalar va yoshlarning ruhiy va ijtimoiy rivojlanishiga bevosita salbiy ta‘sir ko‘rsatishini ta‘kidlaydi, shuningdek, maktab va ta‘lim muassasalari jabrlanuvchilarga yordam berishda muhim rol o‘ynashini ko‘rsatadi. Dr. Zac Seidler esa faqat jabrlanuvchilarni himoya qilish yetarli emasligini, zo‘ravonlik qiluvchi shaxslarning xulq-atvorini o‘zgartirish va psixologik-pedagogik yordam orqali profilaktik choralarni kuchaytirish zarurligini qayd etadi. Shu bilan birga, zo‘ravonlikning ildiz omillari - bolalik travmalari, ruhiy salomatlik muammolari va jamiyatdagi gender stereotiplari - aniqlanishi va bartaraf etilishi kerakligini ta‘kidlaydi. Nodira Latipova va hamkasblari oilaviy zo‘ravonlikning ijtimoiy muhitda murakkabligini va uning yashirin qolish sabablarini yoritadi, shuningdek, bolalarga va ayollarga nisbatan shafqatsiz munosabatlarning oldini olish uchun profilaktik choralarni, huquqiy ongni oshirish va jamiyatdagi stereotiplarni bartaraf etishni muhim deb hisoblaydi.

Umumiy xulosaga ko‘ra, olimlarning tadqiqotlari oilaviy zo‘ravonlikni faqat jinoyat yoki shaxsiy muammo sifatida emas, balki psixologik, ijtimoiy va huquqiy nuqtai nazardan tahlil qilish zaruratini tasdiqlaydi. Ularning fikricha, zo‘ravonlikka qarshi samarali kurash uchun jabrlanuvchilarni himoya qilish, zo‘ravonlik qiluvchi shaxslarning xulq-atvorini o‘zgartirish, bolalarni qo‘llab-quvvatlash va jamiyatda ijtimoiy ongni oshirish kabi integratsiyalashgan yondashuvlar joriy etilishi lozim. Shu tarzda, olimlarning izlanishlari oilaviy zo‘ravonlikni oldini olish va jabrlanuvchilarni himoya qilish bo‘yicha ilmiy asoslangan strategiyalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”⁴gi qonuni oiladagi zo‘ravonlikka qarshi kurashni kuchaytirishga yo‘naltirilgan. Jabrlanuvchilarni himoya qilish choralari oshirilib, jinoyat va ma‘muriy javobgarlik aniqroq belgilandi. Sud jarayonlarida yarashuv va vositachilik qoidalari yangilandi, jabrlanuvchi va uning vakili o‘z huquqlarini yaxshiroq himoya qila oladi. Shuningdek zo‘ravonlik holatlarini qayd etish, kuzatish va oldini olish tizimlari takomillashtirildi.

Shuningdek, ushbu mavzuni O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksining 126-modda 1-prem⁵ida oilaviy zo‘ravonlikka qarshi huquqiy mexanizm belgilangan bo‘lib, u xotin-erkak, sobiq turmush o‘rtog‘i, birga yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga nisbatan sodir etilgan jismoniy zarar, mol-mulkka va huquqlarga to‘sqinlik, shaxsiy obro‘ va qadr-qimmatni tahqirlash, qo‘rqitish va boshqa zararli harakatlar jinoyat sifatida tan olinadi.

⁴ O‘zbekiston Respublikasining “Oilaviy (maishiy) zo‘ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirishlar va qo‘shimcha kiritish to‘g‘risida”gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-7165389>

⁵ O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111453>

Bu modda oilaviy munosabatlarda huquqiy himoyani kuchaytirish, jabrlanuvchini himoya qilish va zo'rvonlik qilgan shaxsga nisbatan aniq, tartibga solingan jazolarni belgilashga xizmat qiladi.

126-modda 1-prem bir necha asosiy funksiyani bajaradi. Birinchidan, u jabrlanuvchining huquq va erkinliklarini himoya qiladi, jumladan, sog'liq, mol-mulk va mehnatga oid huquqlarning buzilishini oldini oladi. Ikkinchidan, modda jinoyatning og'irligi va shikast darajasini hisobga olgan holda jazolarni tizimli tarzda belgilashni ta'minlaydi. Jazolar shikastning darajasi va sog'liqning yomonlashuv muddatiga qarab o'zgaradi: bazaviy hisoblash miqdoridagi jarimalardan tortib, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari va hatto ozodlikdan mahrum qilishgacha yetadi. Bu qonuniy chora jabrlanuvchini himoya qilish bilan birga sodir etuvchiga nisbatan ogohlantiruvchi ta'sir ko'rsatadi.

Uchinchidan, mazkur modda profilaktik ahamiyatga ega. Qonun oilaviy zo'rvonlikni jinoyat sifatida aniqlashtirib, jabrlanuvchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar uchun tizimli javob choralari belgilaydi. Bu esa oilaviy nizolarni tezkor va qonuniy yo'l bilan hal qilish, shaxslar o'rtasidagi huquqiy muvozanatni saqlash va jamiyatda xavfsizlikni ta'minlash imkonini yaratadi. Shuningdek, modda oilaviy zo'rvonlikning turli darajalarini - yengil, o'rta va og'ir shikast yetkazish - alohida belgilash orqali qonuniy aniq me'yorlar yaratadi. Bu nafaqat jabrlanuvchining huquqlarini himoya qiladi, balki jinoyatning og'irligi va oqibatlariga mos ravishda jazolarni qo'llashni ta'minlaydi.

Natijada, 126-modda 1-prem nafaqat oiladagi huquqiy tartibni mustahkamlash, balki jabrlanuvchining xavfsizligini ta'minlash, oilaviy nizolarni kamaytirish va jamiyatda adolatni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bu modda oilaviy zo'rvonlikning oldini olish bo'yicha samarali huquqiy mexanizm sifatida amaliyotda keng qo'llanishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksning 59-modda prem 2⁶ oilaviy munosabatlarda sodir etilgan yengil shikast va huquqbuzarliklarni tartibga soladi. Ushbu modda xotin-erkak, sobiq turmush o'rtog'i, birga yashayotgan shaxs yoki umumiy farzandga nisbatan sodir etilgan, sog'liqning qisqa muddatga yomonlashuviga olib kelmagan yoki mehnat qobiliyatining uncha uzoq bo'lmagan muddatga yo'qolishiga sabab bo'lmagan qasddan badanga yengil shikast yetkazish, mulk, ta'lim olish, sog'liqni saqlash va mehnat huquqlariga to'sqinlik qilish kabi holatlarni nazarda tutadi.

59-modda prem 2 bir necha funksiyani bajaradi. Birinchidan, u jabrlanuvchining asosiy huquqlarini himoya qiladi, shu jumladan, shaxsiy daxlsizlik, mol-mulk va sog'liqga oid huquqlarni. Ikkinchidan, modda jinoyatga yetmaydigan yengil harakatlar uchun ma'muriy javobgarlik choralari belgilaydi, bu esa oilaviy zo'rvonlikning dastlabki bosqichlarini nazorat qilish va oldini olishga xizmat qiladi. Jazolar bazaviy hisoblash miqdorining 10-20 baravarigacha jarima yoki 15 sutkagacha ma'muriy qamoq shaklida belgilanadi, bu sodir etilgan harakatning og'irligi va oqibatlariga mos tarzda qo'llaniladi.

Uchinchidan, modda profilaktik ahamiyatga ega. U oiladagi nizolar va yengil shikast holatlarini tezkor va sodda tartibda tartibga solish, jabrlanuvchini himoya qilish va huquqni muhofaza qiluvchi organlarga chora ko'rish imkoniyatini beradi. Shu yo'l bilan qonun oilaviy zo'rvonlikning dastlabki darajalarini kamaytirish, oilada xavfsizlikni oshirish va jamiyatda barqarorlikni ta'minlashga xizmat qiladi.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks: <https://lex.uz/acts/-97664>

Natijada, 59-modda prem 2 oilaviy zo'ravonlikning yengil shakllarini tartibga soluvchi huquqiy mexanizm sifatida amaliy ahamiyatga ega bo'lib, jabrlanuvchi va huquqbuzar o'rtasidagi nizolarni tezkor, samarali va qonuniy yo'l bilan hal qilishga imkon yaratadi.

O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksining 583-moddas⁷ i jabrlanuvchi va uning qonuniy vakiliga oilaviy (maishiy) zo'ravonlik bilan bog'liq ishlar yuzasidan yarashuv to'g'risidagi arizani sud muhokamasining istalgan bosqichida, ammo sud alohida xonaga (maslahatxonaga) kirishidan oldin berish imkonini beradi. Bu modda oilaviy nizolarni sud orqali hal qilish jarayonida jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs o'rtasida ixtiyoriy kelishuvni rag'batlantiradi.

Shuningdek, 583-modda jabrlanuvchiga yetkazilgan zararlarni bartaraf etish va oilaviy nizolarni tinch yo'l bilan hal qilish imkoniyatini yaratadi. Mazkur modda yarashuv natijasida ish yuritilishini tugatish mumkinligini belgilaydi, ya'ni agar jabrlanuvchi va jinoyat sodir etgan shaxs yarashsa va yetkazilgan ziyon qoplangan bo'lsa, jinoyat ishi bo'yicha ish yuritilishi to'xtatiladi. Agar bir nechta jabrlanuvchi bo'lsa, faqat barcha jabrlanuvchilar bilan yarashuv amalga oshirilganda ish yuritish mumkinligi nazarda tutilgan, bu esa bir tomonning roziligi bilan ishni yakunlashning oldini oladi.

Modda shuningdek, surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sud tomonidan jabrlanuvchiga yarashuvning sud tomonidan tasdiqlanishi va ishni qayta tiklash huquqini yo'qotish tushuntirilishini majburiy qiladi. Bu qonuniy mexanizm jabrlanuvchini huquqlaridan xabardor qiladi va noaniqliklarni oldini oladi.

Shuningdek, Istanbul Konvensiyasi Yevropa Kengashi tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, ayollarga va oilaga nisbatan zo'ravonlikning barcha shakllarini oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish va jinoyatlarni jazolashni maqsad qiladi. Konvensiyada davlatlar oldida profilaktik tadbirlar, ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, xavfsiz boshpana ta'minlash, jinoyatlarni aniqlash va javobgarlikni ta'minlash majburiyatlari belgilangan. Shu bilan birga, u zo'ravonlikni faqat jinoyat sifatida emas, balki ijtimoiy va psixologik jihatdan ham oldini olishni nazarda tutadi. Istanbul Konvensiyasi milliy qonunchilikni xalqaro standartlarga moslashtirishga, oilaviy barqarorlikni saqlashga va jabrlanuvchilarning huquqlarini himoya qilishga xizmat qiladi⁸.

Declaration on the Elimination of Violence against Women BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan xalqaro huquqiy hujjat bo'lib, ayollarga nisbatan barcha shakldagi zo'ravonlikni tan oladi va uni inson huquqlari buzilishi sifatida belgilaydi. Deklaratsiya davlatlarni zo'ravonlikni oldini olish, jabrlanuvchilarni himoya qilish, jinoyatlarni aniqlash va javobgarlikni ta'minlash bo'yicha majburiyatlar bilan ta'minlaydi. Shu jumladan, oilaviy zo'ravonlik, jinsiy tahdid va jismoniy shikastlar kabi holatlar deklaratsiya doirasida qamrab olingan.

Deklaratsiya milliy qonunchilikni kuchaytirish va xalqaro inson huquqlari standartlariga moslashtirishda asosiy huquqiy platforma sifatida xizmat qiladi⁹.

O'zbekiston Respublikasi hududida o'z faoliyatini yuritayotgan rasmiy internet saytlarining xabariga ko'ra, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida O'zbekistonda oilaviy zo'ravonlik bilan bog'liq holda 10 003 nafar fuqaro Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi

⁷ O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111460>

⁸ Council of Europe. Council of Europe Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (Istanbul Convention). Retrieved from <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention>

⁹ United Nations General Assembly. Declaration on the Elimination of Violence against Women, A/RES/48/104. Retrieved from <https://digitallibrary.un.org/record/179739?ln=en&v=pdf>

kodeksning 59-2-moddasi asosida javobgarlikka tortildi. Ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilning shu davrida oilaviy zo'ravonlik uchun javobgarlikka tortilganlar soni 15 427 nafarni tashkil etgan.

Ularning 9 210 nafari jarimaga, 6 217 nafari esa ma'muriy qamoqqa hukm qilingan.

Shuningdek, 2025-yilning yanvar-oktabr oylarida 381 nafar shaxs Jinoyat kodeksining 126-1-moddasi bo'yicha sudlandi. 2024- yilning shu davrida jinoiy javobgarlikka tortilganlar soni 399 nafarni tashkil qilgan. 2023 -yilning aprelida esa ayollar va bolalar huquqlarini himoya qilish bo'yicha qonunchilik kuchaytirilgan. Shu yili Jinoyat kodeksi bo'yicha 203 nafar shaxs sudlangan, ulardan 59 nafari qamoq jazosiga hukm qilingan, 8 928 nafar shaxs esa ma'muriy javobgarlikka tortilgan.

Shuni ta'kidlash lozimki, BMT tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlarga ko'ra, 2024-yilda halok bo'lgan 83 ming ayol va qizning taxminan 60 foizi o'z turmush o'rtog'i yoki qarindoshlari tomonidan o'ldirilgan, ya'ni bu har 10 daqiqada bir nafar ayol-qiz qotillik qurboni bo'layotganini ko'rsatgan.

XULOSA. Oilaviy zo'ravonlikka qarshi jinoyat-huquqiy choralar jamiyatda jabrlanuvchilarni himoya qilish, zo'ravonlikning oldini olish va jinoyatchilarni javobgarlikka tortish mexanizmini ta'minlaydi. Ushbu choralar nafaqat tahdidlarga qarshi kurashadi, balki mol-mulk, shaxsiy daxlsizlik, ta'lim, sog'liqni saqlash va mehnatga oid huquqlarni himoya qilishni ham o'z ichiga oladi. Shu bilan birga, ularning profilaktik vazifasi muhim ahamiyatga ega: jinoyat-huquqiy choralarni qo'llash orqali zo'ravonlik sodir etish xavfi kamayadi, huquqiy ong va mas'uliyatni oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Jabrlanuvchilarni tezkor himoya, boshpana, psixologik va ijtimoiy yordam bilan ta'minlash mexanizmlari bu choralarni yanada samarali qiladi, oiladagi zo'ravonlikning takrorlanishiga qarshi choralar sifatida xizmat qiladi.

Oilaviy zo'ravonlikni faqat jinoyat sifatida emas, balki ijtimoiy va psixologik fenomen sifatida ham ko'rib chiqish, choralarni keng qamrovli tarzda belgilash imkonini beradi. Shu bilan birga, milliy qonunchilikni BMTning Declaration on the Elimination of Violence against Women va Yevropa Kengashining Istanbul Konventsiyasi kabi xalqaro standartlar bilan uyg'unlashtirish, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashning samaradorligini oshiradi. Bu yondashuv nafaqat jabrlanuvchining huquqiy himoyasini mustahkamlaydi, balki jamiyatda oilaviy barqarorlikni saqlash, shaxslarning xavfsizligini ta'minlash va zo'ravonlikni kamaytirishga xizmat qiladi. Shu tariqa, jinoyat-huquqiy choralar profilaktika, himoya va javobgarlik tamoyillarini birlashtirgan holda, oilaviy zo'ravonlikka qarshi kurashishda muhim vosita sifatida namoyon bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy (maishiy) zo'ravonlikdan himoya qilish choralari kuchaytirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar va qo'shimcha kiritish to'g'risida"gi qonuni: <https://lex.uz/docs/-7165389>
2. O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111453>
3. O'zbekiston Respublikasining Jinoyat-protsessual kodeksi: <https://lex.uz/mact/-111460>
4. O'zbekiston Respublikasi Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeks: <https://lex.uz/acts/-97664>
5. Lloyd, M. (2018). Domestic Violence and Education: Examining the Impact of Domestic Violence on Young Children, Children, and Young People and the Potential Role of Schools. *Frontiers in Psychology*, 9, Article 2094. <https://doi.org/10.3389/fpsyg.2018.02094>

6. Seidler, Z. (2024, June 8). It's hard to have compassion: Can interventions change violent men's behaviour? The Guardian. <https://www.theguardian.com/society/article/2024/jun/09/its-hard-to-have-compassion-can-interventions-change-violent-mens-behaviour>
7. Latipova, N. M., Ganiyeva, M. K., Abduvalieva, M. A., & Ziyaeva, H. O. (2020). Family Violence in Modern Uzbekistan. International Journal of Psychosocial Rehabilitation, Article. <https://www.psychosocial.com/index.php/ijpr/article/view/6217>
8. Council of Europe. (2011). Council of Europe Convention on preventing and combating violence against women and domestic violence (Istanbul Convention). Retrieved from <https://www.coe.int/en/web/istanbul-convention>
9. United Nations General Assembly. (1993, December 20). Declaration on the Elimination of Violence against Women, A/RES/48/104. Retrieved from <https://digitallibrary.un.org/record/179739?ln=en&v=pdf>